



MUSIQA O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATI

Muallif: Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi¹

Affilyatsiya: Andijon davlat pedagogika instituti - Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti 2-bosqich talabasi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14440166>

ANNOTATSIYA

Musiqa ta'limi bolalar va yoshlarga nafaqat musiqa madaniyati, balki estetik tarbiya berish jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Musiqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahorati – bu nafaqat nazariy bilimlar, balki o'quvchilarga musiqa olamini ochib berish, ularni ijodkorlikka rag'batlantirish va shu orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish san'ati masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Kommunikativ ko'nikmalar, o'quvchilarning individual xususiyatlari, musiqiy estetika, texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy o'quv usullari, pedagogik mahorat, pedagogik innovatsiyalar, interaktiv ta'lim usullari, integratsiya.

Yangi O'zbekiston jadal rivojlanish va islohotlar davrini boshdan kechirmoqda va buni ta'limdagi islohotlarda o'z ko'zlarimiz bilan ko'rishimiz mumkin. Bunday jarayonda musiqa ta'limi ham muhim o'rin tutadi, sababi musiqa ta'limi o'zbek musiqa madaniyatini saqlash, rivojlantirish va targ'ib qilishga, milliy o'zlikni yuksaltirishga xizmat qiladi. Muxtaram prezidentimizning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ishlab chiqildi. Unga muvofiq yangi o'quv yilidan o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, amalga oshirilishi belgilandi.”.

Har bir millatning, xalqning san'atida O'sha xalqning madaniyati va ma'naviyati o'z aksini topadi. Shuning uchun ham san'atimizga musiqa madaniyatimizga ko'p e'tibor qaratmog'imiz darkor.

Musiqa madaniyati o'qituvchisi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'quvchi o'z qobiliyatlari, musiqiy estetikasi va didiga ko'ra farqlanadi. Misol uchun qaysidir o'quvchining barmoqlari chaqqonligi, uzunligi va yengil harakat qila olishligi fortepiano musiqa asbobini o'zlashtirishi boshqa tengdoshlaridan ko'ra osonroq va tezroq kechishi mumkin. Yoki o'qaysidir musiqa asbobi emas balki qo'shiq kuylash yoki raqs tushish qiziqtirishi mumkin. Musiqa o'qituvchisi bu xilma-xillikni hisobga olib, har bir o'quvchiga individual yondashishi kerak. Ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash orqali musiqaga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi lozim.

O'qituvchining musiqiy bilim va ko'nikmalarni yetkazish usullari juda muhim bo'lgan mahoratlardan biri bo'lib, musiqa fani o'qituvchisi o'z fanining puxta bilimdoni

bo'lishi zarur. U musiqa tarixidan boshlab nazariya va amaliyotgacha, barcha bilimlarni o'quvchilarga tushunarli, qiziqarli va amaliyotga yo'naltirilgan tarzda yetkaza olishi muhim. Shu bilan birga, musiqa o'qituvchisi yangi texnologiyalar va metodlarni qo'llagan holda darslarni qiziqarli o'tkazishi lozim.

Musiqa o'qituvchisining boshqa o'qituvchilardan farqlanib turuvchi jihati bu ilhomlantiruvchi yetakchilikdir. Musiqa o'qituvchilari nafaqat ta'lim beruvchi, balki ilhomlantiruvchi bo'lishlari kerak. Ular o'quvchilarni ijodkorlikka rag'batlantirish, o'z iqtidorlarini kashf etishlariga yordam berishlari lozim. Bu esa o'qituvchining o'ziga xos pedagogik mahoratidan dalolatdir.

Musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati uning shaxsiy fazilatlari bilan chambarchas bog'liq. Quyida ushbu fazilatlarning eng muhimlari keltirilgan:

1. Sabrlilik va tushunuvchanlik.

Har bir o'quvchi musiqani turli darajada o'zlashtiradi. Ayrimlari tezda o'rganishi mumkin bo'lsa, boshqa o'quvchilar uchun vaqt talab qilishi mumkin. O'qituvchining sabrli bo'lishi va tushunish qobiliyati bolalarning musiqiy rivojlanishiga katta ta'sir qiladi.

2. Yangi usullarga ochiqlik hislati.

Musiqa ta'limi sohasida yangi metodlar, texnologiyalar va yondashuvlar doimiy ravishda rivojlanmoqda. O'qituvchi zamonaviy o'quv usullaridan foydalanib, ularni o'quv jarayoniga kiritishi lozim. Aslida nafaqat Musiqa madaniyati fani o'qituvchisida balki boshqa fan o'qituvchilarida ham yangi usullarga ochiqlik hislati bo'lishi darkor.

3. Kommunikativ ko'nikmalar.

O'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar va boshqa ta'lim ishtirokchilari bilan samarali aloqa o'rnatishining uning pedagogik mahoratining muhim jihatlardan biridir. O'zaro hurmat va ishonch asosida qurilgan munosabatlar ta'lim samaradorligini oshiradi.

Hozirgi innovatsion texnologiyalar rivojlanib kelayotgan bir davrda musiqa ta'limida pedagogik innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa o'qituvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan faol foydalanishlari kerak. Bu o'quvchilarga musiqa asarlarini chuqurroq o'rganish, ijodiy salohiyatlarini rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Ta'lim jarayonida interaktiv ta'lim usullarini qo'llash hozirgi davr va yoshlar talabi bo'lib kelmoqda. Interaktiv texnologiyalar orqali darslarni jonli va qiziqarli o'tkazish mumkin. Masalan, onlayn musiqa platformalari, raqamli asboblardan va interaktiv ta'lim dasturlaridan foydalanish o'quvchilarning ishtirokini faollashtiradi.

Shu bilan birga o'qituvchi o'zining darsini boshqa fanlar bilan bog'lab qiyoslab, taqqoslab o'tishi, o'quvchilarning fanni tezroq o'zlashtirishiga va xotirasida uzoq vaqt esda saqlab qolishiga yordam beradi. Musiqa o'qituvchisi boshqa fanlar bilan integratsiya qilingan darslarni o'tkazishi orqali o'quvchilarning keng qamrovli bilim olishlariga zamin yaratadi. Masalan, musiqa va tarix, adabiyot yoki san'at birgalikda o'rganilishi o'quvchilarni yanada qiziqtirishi mumkin. Bu esa ta'limning samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati o'z fani va o'quvchilarining individual xususiyatlarini chuqur anglash bilan belgilanadi. Bu esa o'qituvchining zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishi, sabr-toqatli bo'lishi va ijodiy ruhiyatni oshirishi orqali amalga oshiriladi. Shu mahorat orqali o'qituvchi

o'quvchilarga nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni, balki san'atga bo'lgan chuqur sevgi va hurmatni singdira oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida 2022 yil 2- fevraldagi qarori .

R. Qodirov " Musiqa pedagogikasi" uslubiy qo'llanma Toshkent-2018
"Musiqa madaniyati darslarida raqamlashtirish texnologiyalarning ahamiyati"

